

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvining
2025 yil 24-apreldagi
10/17-son qaroriga
2-ilova

**“AXBOROTLASHTIRISH BOSH MARKAZI”
mas’uliyati cheklangan jamiyati**

U S T A V I

Toshkent shahri — 2025-yil

“Axborotlashtirish bosh markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati USTAVI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Axborotlashtirish bosh markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda Jamiyat) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qaroriga muvofiq qayta tuzilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Axborotlashtirish bosh markazi” davlat unitar korxonasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jamiyatning yagona Muassisi hisoblanadi.

1.3. Jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Markaziy bankning boshqaruv qarorlari, buyruq va farmoyishlari, shuningdek mazkur Ustav va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi.

1.4. Jamiyatning nomlanishi:

1.4.1. O‘zbek tilida:

to‘liq: “Axborotlashtirish bosh markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati;

Qisqartirilgani: ABM MCHJ.

1.4.2. ingliz tilida:

to‘liq: “Main center of informatisation” limited liability company;

Qisqartirilgani: MCI LLC.

1.4.3. rus tilida:

to‘liq: Общество с ограниченной ответственностью “Главный центр информатизации”;

Qisqartirilgani: ООО ГЦИ.

1.5. Jamiyatning joylashgan manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100001, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Islom Karimov ko‘chasi 6-uy.

Jamiyatning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100001, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Islom Karimov ko‘chasi 6-uy.

1.6. Jamiyatning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.

2. JAMIYATNING HUQUQIY MAQOMI

2.1. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan belgilangan tartibda davlat ruyxatidan o‘tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

2.2. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir. Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari Jamiyat tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ish yuritadilar.

2.3. Jamiyat tarkibiga uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan hududiy bo‘limlari kiradi. Hududiy bo‘limlar Jamiyatning filiallari hisoblanib, yuridik shaxs huquqiga va o‘zining mustaqil balansiga ega emas. Ular bo‘lim nomi yozilgan yumaloq muhrga ega.

2.4. Jamiyat o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, bank hisobvaraqlariga, jumladan valyuta hisobvaraqlariga ega bo‘ladi, o‘z nomidan huquqlarni olishi va majburiyatlarga ega bo‘lishi, sud da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Jamiyat o'z faoliyatini to'liq xo'jalik hisobi, o'z-o'zini moliyaviy ta'minlash va o'z xarajatlarini ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar xisobiga amalga oshiradi.

2.6. Jamiyat o'zining to'liq nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan yeri ko'rsatilgan dumaloq muhrga, shtampiga va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda boshqa o'z belgi-alomatlariga ega bo'lishga haqli.

2.7. Jamiyat o'z majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyat Muassisning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va Jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun Muassis qo'shgan ulushi qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

Jamiyat Muassis majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Jamiyatning to'lovga qobiliyatsizligi Muassisning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda Muassis zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Jamiyat hududiy bo'limlari majburiyatlari bo'yicha javob beradi.

2.8. Jamiyat o'z faoliyatining belgilangan maqsadlariga erishishi uchun o'z nomidan shartnomalar tuzishi, mulkiy huquqlarni qo'lga kiritishi va javobgarlikni o'z zimmasiga olishi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq barcha yuridik ahamiyatiga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi.

3. JAMIYATNING VAZIFALARI VA MAQSADLARI

3.1. Jamiyatning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning faoliyatini ta'minlash bo'lib, dasturiy komplekslarni ishlab chiqish, tadbiq etish va ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi. Ushbu vazifasini bajarish quyidagi ishlashini ta'minlashdan iborat:

- 3.1.1. Banklararo elektron to'lov tizimi;
- 3.1.2. Chakana to'lovlar Kliring markazi;
- 3.1.3. Bank telekommunikasiya tarmog'i;
- 3.1.4. Markaziy bankning "Yagona balans" tizimi;
- 3.1.5. Bank tizimi ma'lumotlari omborxonasi;
- 3.1.6. Bank depozitorlarining Milliy axborot bazasi;
- 3.1.7. Elektron pochta va elektron hujjat aylanish tizimi;
- 3.1.8. Kredit axborotining davlat reyestri axborot tizimi;

3.2. Hisoblash, aloqa va tashkiliy texnika vositalariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tiklashga doir xizmat ko'rsatadi.

3.3. Jamiyat o'zining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatida quyidagi tamoyillariga rioya qiladi:

- 3.3.1. Markaziy bank tizimida yagona axborotlashtirish va texnika bazasini yaratish.
- 3.3.2. Texnik va dasturiy ta'minotda ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish.
- 3.3.3. Murakkab texnologik jarayonlarni tashkil etishda xarajatlarni kamaytirish.

3.4. Jamiyatning litsenziyalanishi lozim bo'lgan barcha faoliyat turlari tegishli litsenziya olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

3.5. Jamiyatning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan barcha munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shartnomalar asosida olib boriladi.

3.6. Jamiyat o'zi ishlab chiqqan ishlanmalar, texnologiyalar, dasturiy vositalarni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega, ular tijorat sirini tashkil etadi va zarur bo'lganda patentlanadi.

3.7. Jamiyat Muassisning roziligi bilan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi.

3.8. Zamonaviy texnikalarga asoslangan axborot texnologiyalari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etadi.

3.9. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'z xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi.

4. JAMIYATNING FAOLIYAT SOHASI

4.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi bank tizimida axborot-telekommunikatsiya tizimlarini tadbiq etish bilan shug'ullanadi.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan va Jamiyatning ustavida ko'rsatilgan maqsadlarga javob beradigan barcha turdagi xo'jalik va tijorat faoliyatlarini olib borish huquqiga ega.

4.2. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadlari:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo elektron to'lov tizimini uzluksiz ishlashini ta'minlash;

bank tizimining ma'lumotlar uzatish tarmog'ini loyihalash va ushbu tarmoqning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

respublika moliya sektoriga telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish.

Shuningdek, Jamiyat o'z faoliyatida quyidagilarni ham amalga oshiradi:

O'zbekiston moliya bozoriga ilg'or bank informatsion texnologiyalari va elektron to'lov vositalarini kompleks, har tomonlama va maqsadga yo'naltirilgan holda tatbiq etishni tashkillashtiradi;

bank faoliyati boshqaruvining zamonaviy hisoblash texnikalari, telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot vositalariga asoslangan usullarini joriy qilish hamda bank xizmatlari turlarini kengaytiradi;

moliya va informatsion texnologiyalari, bank faoliyatini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish sohasida investitsion faoliyatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

bank informatsion texnologiyalari va elektron to'lov vositalari, bank faoliyatini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish, banklararo va korporativ aloqa hamda telekommunikatsiya tizimlari sohasida marketing izlanishlari olib borish, uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqadi;

bank va informatsion texnologiyalari bo'yicha trening-markazlarini yaratadi;

Xalqaro moliya institutlari, ilmiy-izlanish, hisoblash va boshqa texnikalar, ilg'or hisoblash va orgtexnika ishlab chiqaruvchilari va tizim integratorlari bilan ilmiy texnik va savdo-iqtisodiy aloqalarni hamda hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi;

O'zbekiston Respublikasi bank tuzilmalariga turli xil tijorat va maslahat (konsalting) xizmatlarini ko'rsatadi;

4.3. Jamiyat o'z vazifalariga ko'ra quyidagi faoliyat turlarini olib boradi:

to'lov tizimini tuzish va uni rivojlantirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi;

elektron to'lov vositalarining huquqiy maqomini belgilovchi, "elektron pullar" muomalasini tartibga soluvchi hamda tomonlar majburiyatlari va o'zaro munosabatlari tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etadi;

kompleks texnologik yechimlar joriy etish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha biznes-planlar ishlab chiqadi;

loyihalarni amalga oshirish, loyihalarning apparat va dasturiy qismlarini o'rnatadi va sozlaydi;

dasturiy-apparat komplekslariga kafolat, kafolatdan keyin va servis xizmatlarini ko'rsatishni amalga oshiradi;

kompleks texnologik yechimlar talablariga ko'ra dasturlar ishlab chiqish va moslashtiradi;

Tizim ishtirokchi-banklari uchun banklararo to'lov tizimi ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

naqd pulsiz hisob-kitoblarning tizim va vositalaridan foydalanib amalga oshirilishi mumkin bo'lgan g'arazli foydalanish va firibgarlik holatlarining oldini olish choralari ishlab chiqishda qatnashadi;

Banklararo to'lov tizimining operatsiyalar amalga oshiruvchi tijorat banklari faoliyatini yo'naltiradi;

tijorat banklari, korxonalar va tashkilotlar bilan dasturiy komplekslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzadi;

Elektron to'lovlar tizimi respublika tarmog'i hisob-kliring markazlari bilan o'zaro faoliyatni tashkil etadi;

ishtirokchi-banklar, Elektron to'lovlar tizimi respublika tarmog'ining hisob-kliring markazlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi;

tizim ishtirokchilari nomidan ma'lumotlar shakllantirish va ularni elektron to'lovlar tizimi respublika tarmog'ining hisob-kliring markazlariga to'lash uchun taqdim qiladi;

tizim ishtirokchilariga moliyaviy ma'lumotlar va elektron to'lovlar tizimi respublika tarmog'ining hisob-kliring markazlari hisob-kitob natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi;

bank, sanoat, savdo-servis va boshqa korxonalar uchun bank to'lov tizimlari, ma'lumot xavfsizligi tizimlari va ruxsatni cheklashning elektron tizimlarining loyihalarini ishlab chiqish va tadbiq qiladi;

bank, moliya va informatsion texnologiyalarni tadbiq qilish sohasida, bank va korporativ faoliyat biznes-jarayonlarining reinjiningi bo'yicha marketing, ma'lumot-analitik va konsalting xizmatlarini ko'rsatadi;

mavjud va yangi bank xizmatlari, informatsion texnologiyalar va moliyaviy vositalarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish maqsadida reklama va so'rov tadbirlarini tashkil qiladi;

ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va yaratuvchi firmalarning texnik ekspertlarini jalb etgan holda bank va boshqa tashkilotlar mutaxassislarini o'qitishni tashkil qilish va o'tkazish, bank, moliya va informatsion texnologiyalar bo'yicha seminar, konferensiya va ko'rgazmalar o'tkazadi;

loyiha, ilmiy-izlanish ishlari, texnik, texnik-iqtisodiy ekspertiza va maslahatni amalga oshiradi, informatsion xizmat ko'rsatadi;

texnologik maqsadlarda ishlatiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, bank informatsion texnologiyalari sohasida xizmatlar ko'rsatadi;

hisoblash texnikalarini yig'ish, ta'mirlash va kompleks xizmat ko'rsatadi;

avtomatlashtirilgan apparat-dasturiy tizimlar, elektron hisoblash texnikasi va tizimlarini ishlab chiqish, tadbiq qilish va o'rnatish, ularni ekspluatatsiya qilish va servis xizmatlari ko'rsatadi;

konsultatsiyalar berish, shu jumladan, iqtisodiy va texnik yo'nalishdagi konsultatsiyalar beradi;

yangi informatsion bank va telekommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish, tadbiq qilish va amalga oshiradi.

4.4. Litsenziyalash yoki maxsus ruxsatnomalar olinishi lozim bo'lgan faoliyat turlari bilan Jamiyat amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va shartlarda shug'ullanadi.

5. JAMIYATNING HUQUQLARI

5.1. O'z faoliyatini amalga oshirish va o'z oldida turgan vazifalarni bajarish maqsadida, Jamiyat quyidagi huquqlarga egadir:

tuzilgan shartnomalarga muvofiq dasturiy komplekslarni ishlab chiqish va kuzatib boradi; chet el davlatlarining axborotlashtirish sohasidagi korxonalari va tashkilotlari bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantiradi;

ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va xizmatlarni kelishilgan narxlar bo'yicha xizmat ko'rsatadi;

Jamiyat o'z faoliyat dasturini mustaqil shakllantiradi, shartnoma asosida ishlab chiqargan mahsulotlari (ish, xizmatlar)ning ichki va tashqi bozorlarda sotilishi, uning narxlarini, shuningdek ish va xizmatlarni bozordan yetkazib berish shartlarini belgilashi mumkin.

Muassisning roziligi bilan o'z vakolatxonalari va filiallarini O'zbekiston Respublikasi hududida hamda tashqarisida ochadi;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan turli bitimlar hamda boshqa yuridik harakatlarni amalga oshiradi;

Jamiyat ishlariga qonunchilikda belgilangan tartibda chet el jismoniy shaxslarini jalb qiladi;

Muassis bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi hududida ko'char va ko'chmas mulklarni, mulkchilik huquqlarni va intellektual mulkni mulk qilib sotib oladi, ularni ijaraga oladi va beradi;

dasturiy mahsulotlarni hamda xizmatlarni sotadi;

Jamiyatning Ustavida belgilangan vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan texnik-ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo, materiallar, transport vositalarini sotib oladi;

Xarid, shu jumladan kim oshdi savdolari va tanlovlarda qatnashish hamda xayriya va homiylik faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi;

qonunchilikda belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi;

Jamiyat tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan to'lov tizimlari va dasturiy komplekslarga integratsiya bo'lgan to'lov tizimlari, to'lov tashkilotlari va tijorat banklaridan tegishli shartnomada belgilanadigan tartibda talablarni bajarilishini nazorat qiladi;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

6. JAMIYATNING USTAV FONDI

6.1. Jamiyat Ustav fondi 23.697.407.217 so'm (yigirma uch milliard olti yuz to'qson yetti million to'rt yuz yetti ming ikki yuz o'n yetti) so'm 92 tiyinni tashkil etadi.

6.2. Muassis ulushining miqdori ustav fondining 100 foizini tashkil qiladi.

6.3. Jamiyatning ustav fondidagi ulushning qismlarga bo'linishi (uchinchi shaxslar hissalarini qo'shish) taqiqlanadi.

6.4. Ustav fondi miqdorini o'zgartirish Muassis qarori bilan amalga oshiriladi.

6.4. Jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi Jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat Muassisining qo'shimcha hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

6.5. Jamiyat Ustav fondining kamaytirish Muassisa tegishli bo'lgan ulushning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

6.6. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustavga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

7. JAMIYATNING MOL-MULKI

7.1. Jamiyatning mol-mulki asosiy va aylanma mablag'lar tashkil etadi.

7.2. Jamiyat mulki:

Muassis tomonidan Jamiyatga foydalanish huquqi bilan kiritilgan ulush;

Jamiyatning o'z faoliyatidan olingan foydasi;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobiga shakllantiriladi.

Jamiyat mulkning qiymati korxonaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

7.3. Jamiyatning mulki bo'linmas mulk hisoblanadi va korxona xodimlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

7.5. Jamiyat mulkini tassarruf etish quyidagi hollarda Jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan Muassis bilan kelishgan holda qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi:

asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga berish, hisobdan chiqarish;

mulkni Jamiyat faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

8. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

8.1. Jamiyatning boshqaruv organlari:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi Jamiyatning oliy organi boshqaruv organi;

Jamiyat Bosh direktori (keyingi matnda –jamiyat rahbari) ijro organi hisoblanadi.

8.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

9. JAMIYAT MUASSISINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Jamiyat Muassisi quyidagi huquqlarga ega:

jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;

normativ-huquqiy hujjatlarda va Jamiyat ustavida belgilangan tartibda Jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

jamiyat ustav fondining miqdorini o'zgartirish;

ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;

jamiyatning sof foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning moliyaviy faoliyatini mustaqil auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash;

jamiyat rahbarini mulkiy javobgarlikka tortish to'g'risida qarorni qabul qilish;

har yili 1-dekabrgacha jamiyatning keyingi yil uchun biznes-rejasini tasdiqlash, har chorak yakuni bo'yicha jamiyatning moliya - xo'jalik faoliyati natijalari haqidagi hisobotini eshitish;

vakolatxonalar va filiallarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash

tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;

jamiyat tomonidan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining o'ttiz foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risida qarorni qabul qilish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Muassis O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

9.2. Muassis quyidagilarga majbur:

normativ-huquqiy hujjatlarda va Jamiyat ustavida ko'zda tutilgan tartibda, miqdorda fondiga ulushlarni kiritish;

Jamiyat Ustavi qoidalariga rioya qilish;

normativ-huquqiy hujjatlarda va Jamiyat ustavida ko‘zda tutilgan tartibda Jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish;
Jamiyat faoliyati haqidagi maxfiy axborotni oshkor etmaslik;
Muassis huquqiy hujjatlarida va Jamiyat Ustavda ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

10. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

10.1. Jamiyat Bosh direktori Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi Jamiyatning yakkaboshchilik asosida ijro etuvchi organi hisoblanadi.

Jamiyat rahbarini lavozimiga tayinlash va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish Markaziy bank boshqaruvi qarori asosida amalga oshiriladi.

10.2. Jamiyat rahbarining huquq va majburiyatlari mazkur Ustav hamda u bilan tuziladigan mehnat shartnomasida belgilanadi.

10.3. Jamiyat rahbari vakolati jumlasiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish bilan bog‘liq barcha masalalar kiradi, jamiyat Muassisi mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradigan masalalar bundan mustasno. Jamiyat rahbari Jamiyat Muassis qarorlarining bajarilishini tashkil etadi. Yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organ Jamiyat Muassisiga hisobdor Jamiyat faoliyati bo‘yicha hisoblanadi.

Jamiyat rahbari:

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan barcha xorijiy va mamlakat korxonalari hamda tashkilotlarida, davlat hokimiyati organlarida, mamlakat ichida va uning tashqarisida sud, arbitraj sudida uning manfaatlarini ifodalaydi. Muzokaralar olib boradi, hujjatlarni imzolaydi, shartnomalar va bitimlar tuzadi, bank muassasalarida hisobvaraqlar ochadi, Jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shuningdek Jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi, shu jumladan bitimlar tuzish uchun ishonchnomalar beradi;

xodimlarning soni, ular mehnatiga haq to‘lash shakllari, tizimlari va miqdorlarini Muassis bilan kelishilgan holda belgilaydi va tasdiqlaydi;

Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majbur bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi;

Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag‘batlantirish choralari va intizomiy jazolarni qo‘llaydi;

Jamiyatni rivojlantirish rejalarining ishlab chiqilishi va bajarilishiga javob beradi;

Jamiyat Muassisiga foydani taqsimlash va uni yo‘naltirish, fondlarni tashkil qilish va ulardan foydalanish tartibini aniqlash bo‘yicha takliflar beradi;

Jamiyatning buxgalterlik hisobi va hisobotlari yuritilishini tashkil qiladi, yillik hisobotlar, buxgalteriya balanslari, foydalar va zararlar to‘g‘risidagi hisobotlarni taqdim etadi, shu jumladan mol-mulk va foydaning harakati bo‘yicha hisobot beradi;

Jamiyat Muassisi ko‘rib chiqishi uchun zarur materiallar va takliflarning tayyorlanishini tashkil etadi hamda Jamiyat Muassisi qabul qilgan qarorlarni bajaradi;

Xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan xodimlarning ijtimoiy ta‘minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

xodimlarini ijtimoiy ta‘minlash va himoya qilishda davlat kafolatisiz jalb qilinadigan investitsiya mablag‘lari hisobidan ham amalga oshirish tizimini ishlab chiqadi va uni tadbiq etadi;

tijorat sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlar hajmini aniqlaydi va ularni muhofaza qilishni tashkil etish bilan shug‘ullanadi;

Jamiyatning mol-mulki va pul mablag‘larini o‘z vakolati doirasida tasarruf etadi;

Jamiyatning ustaviga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar yoki yangi tahrirdagi ustav loyihasini ishlab chiqadi va uni tasdiqlashi uchun Muassisa taqdim etadi;

Jamiyatning ichki huquqiy hujjatlarini tasdiqlaydi;

Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, yoʻnaltiradi, Jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Ustavga muvofiq Jamiyat faoliyatining maqsadlariga erishish va uning bir maromda ishlashini taʼminlash uchun zarur boʻlgan boshqa vazifalarni bajaradi.

10.4. Jamiyat rahbari vaqtinchalik ishda boʻlmaganida oʻrinbosarini uning majburiyatlarini bajaruvchi shaxs sifatida tayinlaydi.

10.5. Jamiyat rahbari oʻz majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarganlik uchun, shuningdek oʻzlarining aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan Jamiyatga yetkazilgan zararlar uchun Jamiyat oldida Qonunda belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

10.6. Jamiyat rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Muassis tomonidan imzolanadi.

11. JAMIYAT FOYDASINI TAQSIMLASH

11.1. Jamiyatning xoʻjalik faoliyati natijasida olinadigan daromadi davlat byudjeti bilan hisob-kitoblardan soʻng Jamiyat Muassisining tasarrufida qoladi. Muassisi yigʻilishi eʼlon qilgan va tasdiqlagan hamda Jamiyat tasarrufida qoladigan foyda har yili bir marta Jamiyatning ustaviga muvofiq Jamiyatning rivojlantirilishi manfaatlari va uning Muassisi manfaatlarini qondirish uchun taqsimlanadi.

11.2. Jamiyat belgilangan tartibda foyda hisobiga Jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda va Muassis tomonidan tasdiqlangan mikdorlarda zaxira fondi va boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin.

12. JAMIYAT FAOLIYATI USTIDAN NAZORAT

12.1. Jamiyatning moliyaviy-xoʻjalik faoliyatining nazorati quyidagicha amalga oshiriladi:

Muassis tomonidan kamida bir yilda bir marta Muassis ichki audit xizmati tomonidan jamiyat moliyaviy-xoʻjalik faoliyati auditdan oʻtkaziladi;

zarurat boʻlganda, Muassis qaroriga koʻra auditorlik xizmatlari tomonidan ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida.

13. YILLIK HISOBOT TUZISH VA TAQDIM ETISH TARTIBI

13.1. Jamiyat qonunlarda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobotlari davlatning tegishli idoralari va Muassisa taqdim etishi shart.

13.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning ahvoli va ishonchliligi, yillik va boshqa moliyaviy hisobotlar hamda maʼlumotlarning tegishli idoralarga oʻz vaqtida taqdim etilishi uchun masʼuliyat amaldagi qonunlarga muvofiq jamiyat rahbari zimmasiga yuklanadi.

14. JAMIYAT USTAVIGA OʻZGARTIRISH VA QOʻSHIMCHALAR KIRITISH

14.1. Ushbu Ustavga oʻzgartirish va qoʻshimchalar Muassis qarori bilan kiritiladi.

14.2. Agar ushbu Ustav qoidalaridan biri oʻz kuchini yoʻqotsa, u holda bu holat qolgan qoidalarga taʼsir qilmaydi. Oʻz kuchini yoʻqotgan qoida huquqiy jihatdan mumkin boʻlgan va mazmuni jihatdan almashtirilayotgan qoidaga yaqin boʻlgan qoida bilan almashtiriladi.

15. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

15.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va “Masʼuliyati cheklangan jamiyatlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida hamda ushbu ustavda nazarda tutilgan tartibda Muassisning qarori bilan amalga oshiriladi.

15.2. Jamiyatni qayta tashkil etish, qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish, qayta tuzish va tugatish Muassis qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

15.3. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

16. YAKUNIY QOIDALAR

16.1. Ushbu Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va Jamiyat tugatilguniga qadar yoki Muassis mazkur Ustavning amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar amalda bo'ladi.

16.2. Muassis ushbu Ustav bo'yicha biror-bir majburiyatni bajarmagan yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agarda bunday bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik fors-major holatlari natijasida kelib chiqqan bo'lsa.

16.3. Ushbu Ustavda o'z aksini topmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Rais o'rinbosari



A.A. Turdaliyev